



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Shomurod Mustafayev¹

¹ Pedagogika fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori, SamDU katta o'qituvchisi.
shomurodmustafayev@mail.ru

BADIIY TO'GARAKLAR TARBIYAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ARTPEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotasiya: Artpedagogika o'zining integrativ xususiyatidan kelib chiqib, badiiy jarayonning subyekt va obyektlari orasidagi o'zaro hamkor munosabatlarning integral - badiiy va pedagogik natijalarini beradi. Badiiy to'garaklar san'at va pedagogika integratsiyasini o'zida mujassam etib, artpedagogikaning noyob platformalarini tashkil qiladi.

Tayanch so'zlar: artpedagogik, integrativ, ustoz-shogirdlik, g'oyaviy-mafkuraviy, forumlar, messenjerlar, podkasting, chellenjlar, layfxaklar.

Аннотация: Художественная педагогика в силу своей интегративной природы дает целостные - художественно-педагогические результаты взаимодействия субъекта и объектов художественного процесса. Художественные кружки сочетают в себе интеграцию искусства и педагогики и образуют уникальную платформу для художественной педагогики.

Ключевые слова: художественно-педагогический, интегративный, педагог-ученик, идеологический, форумы, мессенджеры, подкасты, вызовы, лайфхаки.

Abstract: Art pedagogy, due to its integrative nature, provides integral - artistic and pedagogical results of the interaction between the subject and objects of the artistic process. Art circles combine art and pedagogy and form unique platforms of art pedagogy.

Keywords: art pedagogical, integrative, teacher-student, ideological, forums, messengers, podcasts, challenges, lifehacks.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning oktabr oyida Xorazm viloyatining bir guruh faol yoshlari bilan Yoshlar markazida uchrashib, ta’lim olish samaradorligi qurilgan inshootga emas, yoshlarning tashabbusida ekanligini qayd etdi. “Biz bu kabi zamonaviy inshootlarni ko‘plab qurishimiz mumkin. Lekin uning ichida qanday ta’lim-tarbiya olish, hunar o‘rganish siz yoshlarning intilish va tashabbuslaringizga bog‘liq [1]”, - dedi davlat rahbari. Darhaqiqat, yoshlar bo‘sh vaqtini foydali va maroqli tashkil etishga yangicha, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ijobiy natijalar bergan samarali, ilmiy-amaliy yondashuvlar kerakligini zamonning o‘zi taqozo qilmoqda. Ana shunday istiqbolli, yangi yo‘nalishlardan biri – artpedagogikadir.

Keng ma’noda artpedagogik ishlar tizimi quyidagi tuzilmalarni: ta’lim-tarbiya jarayonining eng muhim va asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan bolalar bog‘chasidan boshlab ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarini qamrab oladi. Artpedagogik faoliyat mustaqil, rasmiy shaklda emas, balki ta’lim-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning muntazamligiga, tizimli va ilmiy asosda olib borilishiga, ularning samarali tashkil qilinishi uchun

mas'ul bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlari, ushbu faoliyatning barcha subyektlari faoliyatining vositasi hisoblanadi.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Artpedagogika o'zining integrativ xususiyatidan kelib chiqib, badiiy jarayonning subyekt va obyektlari orasidagi o'zaro hamkor munosabatlarning hosilasi o'laroq integral - badiiy va pedagogik natijalarini beradi. Bunda ta'lim va tarbiya jarayonlarida subyekt, ya'ni Ustoz - shogirdga, professor-o'qituvchi - talabaga biror ijodiy g'oya, mavzuni tushuntirish, suhbat, mashq, uqtirish, ijro qilib ko'rsatish, ishontirish, inontirish, rag'batlantirish metodlarini qo'llash orqali ko'chiradi.

Artpedagogik ishlar tizimi uzluksiz jarayon bo'lib, u oliy ta'lim muassasalarida kompetentli subyektlar - Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, kasaba uyushmalari, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, tuman, shahar madaniyat bo'limlari, madaniyat va san'at muassasalari hamkorligida olib boriladigan, bir-biriga bog'liq madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasidan iborat.

Besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan badiiy to'garaklar san'at va pedagogika integrasiyasini o'zida mujassam etib, artpedagogikaning noyob platformalarini tashkil qilmoqda. Shu ma'noda badiiy to'garaklar – talabalarning qiziqishlari asosida tashkil etiladigan guruhlar bo'lib, ularning bo'sh vaqtlarini maqsadli tashkil etish, faol ijtimoiy munosabatlarga jalb etish, ma'naviy, g'oyaviy-estetik, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, yoshlarning o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishiga sharoit yaratish, shuningdek tarbiya, targ'ibot, tashviqot funksiyalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan, ixtiyoriy ijodiy faoliyat instituti hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlillar artpedagogik faoliyatning asosiy subyektlarini: davlat va mahalliy hokimiyat organlarining ta'lim-tarbiya hamda madaniyat va san'at muassasalari; teatrlar; kinoteatrlar; bastakorlar uyushmasi bo'limlari; oilalar; maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalari; madaniyat muassasalari (teatr, muzey, tarixiy obidalar, kinoteatr, kutubxona, istirohat bog'lari, ashula va raqs ansambllari, yoshlar ansambllari,

guruhlari va boshqalar); ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at muassasalari; ijod maktablari; bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlari va boshqalar tashkil etishini ko'rsatadi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Artpedagogikaning obyektlari – millati, tili, jinsi, ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari, yoshlari, xususan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari; umumiy o'rta ta'lim muassasalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalari; uyushmagan yoshlar; davlat va xususiy korxonalarda faoliyat olib borayotgan fuqarolar; nuroniylar, mehnat faxriylari, ya'ni san'at va madaniyat mahsulotlaridan bevosita va bilvosita bahramand bo'luvchi aholi toifalari hisoblanadi.

Artpedagogikaning asosiy tamoyillari: yuksak badiiylik, milliylik, ilmiylik; tizimlilik; tarixiylik; muntazamlilik; jozibadorlik; ta'lim-tarbiya ishlarining uyg'unligi; jarayonning izchilligi; Ustoz-shogirdlik ma'naviyati va ma'rifatida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish hisoblanadi.

Artpedagogikaning ijtimoiy tarbiyaviy usullari – aholi, san'at vositasida aholi, yoshlarda zarur ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar va mustahkam mafkuraviy immunitetni, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi texnologiyalar, usul va uslublarni anglatadi.

Artpedagogik amaliyotni o'rganish uning boy imkoniyatlari turli shakllardagi tadbirlarda, jumladan,

- konsertlar, spektakllar, Ustoz-shogirdlik, badiiy anjumanlar, master klasslar, "Nazm va navo" kechalari, savol-javob kechalari, g'azalxonlik, kitobxonlik, elektron o'yinlar, san'atkorlar bilan uchrashuvlar,

- ijtimoiy tarmoqlarda forumlar, messenjerlar orqali mumtoz qo'shiqlar targ'iboti (masalan, "8-nota" telegram kanali va h.k.).

- musiqali suhbat, kinopremyeralar, vernisajlar;

- jamiyatda obro‘ qozongan, boy hayotiy va ijodiy tajribaga ustoz san’atkorlar, yozuvchilar, akterlar, madaniyat namoyandalari bilan uchrashuvlar;
- yosh san’atkorlar bilan ijodiy uchrashuvlar;
- artpedagogik ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar,
- san’at turlariga bag‘ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;
- “Hududlarning badiiy-ma’rifiy muhiti Xaritasi” va boshqa usullar orqali oila, mahallalarda saqlanib kelayotgan badiiy muhitni o‘rganish;
- badiiy teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, OAV, veb-saytlar va elektron o‘yinlar, turli gadjetlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;
- san’at mavzularida davlat va jamoat tashkilotlari, mahallalar, ta’lim muassasalarida aholi bilan uchrashuvlar;
- teatr, kino, raqs, adabiyot, tasviriy san’at va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy-ommabop taqdimotlar, kitob, risola, maqolalar, infografikalar, slaydlar, flayerlar, elektron nashrlar chop qilish va boshqalar shular jumlasidandir.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Bugungi globallashayotgan, kompyuterlashayotgan davrda to‘garaklarning talabalar hayotidagi rolini aniqlash maqsadida berilgan “To‘garak sizga nima berdi?” savoliga ular to‘garak ijodkorlikni o‘rgatdi; yangi qirralarim ochildi; dunyoqarashim kengaydi; san’atga qiziqishim oshdi; jamoada hamfikir, birdamlik yaxshi; do‘stlarim davrasi kengaydi; ilgari odamlarning oldiga chiqishga uyalardim, hozir o‘zimni erkin, bemalol tutaman; endi bekor yurmayman; erkin fikrlashni o‘rgandim; bahs-munozaralar; bu yerda o‘zimga ruhiy yordam topdim; dadil bo‘lishga; tashabbuskorlikka o‘rgandim, degan javoblarni berishdi.

Shu bilan birgalikda, ular to‘garaklar faoliyatidagi qator tashkiliy-pedagogik kamchiliklarni ham qayd qildilar. Jumladan, to‘garaklarda: mashg‘ulotlarning tizimli davom etmasligi; zerikarli bo‘lishi; tashabbuslarning bug‘ib qo‘yilishi; cholg‘u asboblarning yetishmasligi; repertuarining torligi; ba’zi ishlarning aytilib, qilinmasligi va h.k.



Madaniy tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida “Respublika Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi” tomonidan ishlab chiqilgan “Tadbir samaradorligining 10 sharti” risolasi modifikatsiyasi asosida oliy ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan, talabalarni g‘oyaviy-estetik tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar samaradorligini oshirishning artpedagogik shartlari ishlab chiqilib, joriy qilindi [3;115] (jadval).

Badiiy to‘garaklarda g‘oyaviy-estetik tarbiyaning artpedagogik shartlari¹

¹Баллар йиғиндиси ўрганилган тадбир самарадорлик коэффициентини кўрсатади. Баҳолаш тартиби: У ёки бу шарт умуман бажарилмаган бўлса, – 0 балл, 25% бажарилган бўлса – 3 балл, 50% бажарилган бўлса – 5 балл, 75% бажарилган бўлса – 8 балл, 100% бажарилган бўлса – 10 балл қўйилади. Ҳар бир шарт бўйича ютуқ ва камчиликлар 2.4 жадвалга ёзиб борилади.

| | Ko'rsatkichlar | Artpedagogik shartlar | Baho |
|-----|------------------------------|--|------|
| 1. | Tadbirda zarurat | Tadbirning shu mavzuda, shu vaqtda, shu qatnashchilar tarkibi bilan o'tkazilishining asoslanishi | |
| 2. | Nomi | Talabalarning qiziqishlariga mos va g'oyaviy-estetik tarbiya vazifasiga kiruvchi masala bo'lishi | |
| 3. | Maqsad | Tadbirning g'oyaviy-estetik maqsadi belgilanganligi | |
| 4. | Tayyorgarlik ko'rish muddati | Tadbir mavzusi va mundarijasi haqida kamida bir hafta oldin talabalarga e'lon qilinishi; to'garaklar bir hafta oldin tayyorgarlik ko'rishi | |
| 5. | Tadbir ssenariysi | Tadbir ssenariysining bir hafta oldin tuzilib, mas'ullar va ijrochilar bilan kelishilganligi, ssenariyda vaqtning taqsimlanganligi | |
| 6. | Tadbirning borishi | Tadbirning badiiy jozibadorligi, tarixiy, milliy, zamonaviy misollardan foydalanish | |
| 7. | Auditoriya | Tomoshabinlar bilan havaskorlar orasida muloqot, o'zaro murojaat uchun qulay, samimiy muhit ta'minlanganligi | |
| 8. | Ko'rgazmalilik | Kamida uchta ko'rgazmali vositadan foydalanish | |
| 9. | Erishilgan natija | Talabalardan taassurotlarini savollarga aylantirib so'ralganligi. Maqsadning natijaga mosligi | |
| 10. | Hujjatlashti- | Tadbirning bayonlashtirilgani: bayonda | |

| | | |
|------|--|--|
| rish | maqsad, tezislar, berilgan savol, olingan javoblar, taasurotlar, yutuq va kamchiliklar, xulosa, tavsiyalar yozilib, saqlanishi | |
| | Jami ballar: | |

Yuqoridagi texnologik shartlarning baholanishi asosida ekspertlar tomonidan tadbirning yutuq va kamchiliklari mazmunini tahlil qilish uchun “Badiiy to‘garaklarning artpedagogik samaradorligini baholash jadvali” ishlab chiqildi. Mazkur jadval keyingi tadbirlarni rejalashtirish, tashkil qilish, mahsuldorligini baholash, ularning g‘oyaviy-estetik samaradorligini oshirishda artpedagogik texnologik omil bo‘lib xizmat qildi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Besh muhim tashabbus doirasida badiiy to‘garaklar rahbarlarining artpedagogika borasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish to‘garaklarda g‘oyaviy-estetik tarbiya ishlari samaradorligini oshiradi.

Madaniyat va san‘at oliy ta‘lim muassasalarida “San‘at pedagogikasi”, institut va universitetlarning san‘at yo‘nalishidagi fakultetlarida “Artpedagogika” nomli maxsus kurs dasturining joriy qilinishi badiiy jamoalarning talaba yoshlar uchun haqiqiy san‘at, chinakam badiiy go‘zallik maskanlari bo‘lishi, ularning g‘oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot asarlarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Badiiy to‘garaklarda milliy g‘oyani tarannum etishga, unga zid g‘oyalarning zararli mohiyatini ochib berishga e‘tiborni kuchaytirish, hayot va ijodda mahdudlik, fikr qashshoqligiga, milliy ma‘naviyatga zid asarlarning ommalashuviga qarshi bahs-munozaralar talabalar g‘oyaviy tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Artpedagogikaning mazmun-mohiyatini keng yoritish, madaniyat va san'at oliy ta'lim muassasalari, universitetlarning musiqa fakultetlari professor-o'qituvchilari, talabalari, badiiy to'garaklar a'zolari uchun ijtimoiy tarmoqlarda "Artpedagogika" platformasini tashkil qilish, podkasting, chellenjlar, layfxaklar uyushtirish, shuningdek, "Artpedagogika" bosma va virtual ilmiy-ommabop lug'atini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://sputniknews-uz.com/society/20171015/6553285.html>;
2. Tadbir samaradorligining o'n sharti. T.: "Ma'naviyat", 2006. 18–B.;
3. Mustafayev Sh. N. Globallashuv sharoitida talabalarni g'oyaviy-estetik tarbiyalash texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD. ...diss. –T., 2018. – 115 b.